



**IQBOL MIRZO SHE'RLARIDA MORFOLOGIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR TAHLILI**

Abdusalomova Hayitxon Davron qizi

*Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi
25.101-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llanilgan leksik va sintaktik vositalar, xususan, o'xshatish va ritorik figuralarning badiiy matndagi o'rni tahlil qilinadi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida shoir ijodida uchraydigan sinonimiya, takror, emotsional-ekspressiv birliklar kabi leksik vositalarning badiiy matn mazmunini ochishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, lirik matn tili, shoirning so'z qo'llash mahorati, parallelizm, inversiya, gradatsiya kabi sintaktik vositalarning she'riy matnda obrazlilik va ta'sirchanlikni kuchaytirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Iqbol Mirzo she'rlarida til vositalari lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: sintaktik vositalar, leksik tahlil, takror, so'z tanlovi.

Kirish

Zamonaviy o'zbek she'riyati vakili hisoblangan Iqbol Mirzo ijodida til vositalaridan mahorat bilan foydalanish alohida e'tiborga loyiqdir. Shoir ijodida so'z tanlovi, sinonimik qatlam, takroriy birliklar, inversiya, parallelizm, ritorik so'roq kabi turli til vositalari lirik qahramonning ichki kechinmalarini ochishda muhim rol o'ynaydi.

Iqbol Mirzo ijodida ot va fe'llardan tashqari sifat shakllari qo'llanish ustuvorligiga ega. Bundan tashqari shoir kichraytirish-erkalash affikslari, yuklamalardan foydalanishda ham alohida mahoratga tayangan holda, ularni nafaqat o'z ma'nosida, balki boshqa turli ma'nolarda ham qo'llashga erishgan.

Shoir o'z she'rlarida barcha uchun tushunarli, umumiste'moldagi so'zlardan foydalangan holda o'quvchilarga obrazli va ta'sirchan she'rlarni yetkazib beradi. Buning sababi, albatta, til vositalaridan mahorat bilan foydalanishidir. Masalan, Iqbol Mirzo she'rlarida o'xshatishlar alohida e'tiborga loyiq vositadir: "Oy -- ko'kka tavakkal ortilgan tanga..."("Bunchalar")[1,3]. Ushbu parchada oy so'zi tangaga o'xshatilyabdi, chindan ham to'lin oy tangaga o'xshashini bilamiz. "Qizil kiygan qizdek



qirmizi lolalar..."("Entikadi...") [1,6] parchasida esa lolalar qizil kiyim kiygan qizga o'xshatilyabdi. Yuqoridagi parchada -dek vositasi orqali o'xshatish yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Iqbol Mirzo she'rlarida yuklamalarni qo'llashda ham o'ziga xos usullardan foydalanadi. Masalan, "Nahot anglamaysan, bilmaysan nahot, axir men bittaman, yagona, yolg'iz"("Yolg'iz") [1,4]parchasidagi "nahot" yuklamasi inversiyaga uchragan holda berilgan. Gap savol shaklida bo'lsa-da, aslida bu ritorik savol, ya'ni javob talab qilmaydi, balki his-tuyg'uni kuchaytiradi. Parchadagi axir yuklamasi esa fikrni ta'kidlash ma'nosida qo'llangan.

Uning qovog'idan boshimga yoqqan

Qorini Xudoga soldim-da qo'ydim.

Qonimni qaynatib, jonimni yoqqan

Korini Xudoga soldi means qo'ydim. ("Xudoga soldim") [1,13]

Yuqoridagi she'riy parchada ham -da yuklamasidan unumli foydalangan holda shoir lirik asarni emotsional jihatdan ta'sir kuchini oshirgan. Bu yerda -da ta'kid ma'nosida kelib, ish-harakatning butunlay yakunlangani va qat'iylik ma'nosini ifodalamoqda. Oddiy "Xudoga soldim" birikmasidan ko'ra "Xudoga soldim-da qo'ydim" birikmasi qarorni qat'iyligini ta'kidlab, "soldim va tamom, bo'ldi, ortga yo'l yo'q" ma'nosini bildirib kelmoqda. "O'sha-ku xor kelsa toptagan tikka, o'sha-ku zo'r kelsa darrov bosh bukkani" ("Xudoga soldim") parchasida esa -ku yuklamasi kuchaytiruv-ta'kid ma'nosida qo'llangan. Lirik matndagi fikrni aniqlashtirib, so'zlovchiga ham, tinglovchiga ham ma'lum bo'lgan "o'sha" shaxsni ta'kidlab, o'sha shaxsga urg'u berilgan.

Shoir til vositalaridan biri hisoblangan takror turlaridan ham mahorat bilan foydalangan.

Takrorlar, odatda, ikki turga bo'linadi:

1. Kontakt, ya'ni yonma-yon qo'llanuvchi takrorlar.

2.

Distant – masofaviy tarzda qo'llanuvchi takrorlar.”[2,103]

Adib ijodida takrorlarning yuqoridagi ikki turidan ham unumli foydalangan. Masalan:

Sevgi, sevgi der ekan,

Sevgi dilni yer ekan. [1,8]

Bu parchada takrorlanayotgan sevgi so'zi mavzuni markaziy lashtirib, asosiy g'oyani kuchaytirmoqda. Misra boshlarida takrorlanishi esa anafora hodisasiga misol bo'la oladi. Anafora she'riy misralarning boshida yoki nasriy asardagi gaplarning oldida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh so'z va iboralarning takrorlanib kelishidir. [3,97] "Bunchalar sevdirding meni,



bunchalar" ("Bunchalar...") [1,3] parchasi esa takror vositasi distantga misol bo'la oladi. Ushbu misrada bunchalar leksik takrori distant tarzda qo'llangan. Yuqorida keltirilib o'tilgan "Nahot anglamaysan, bilmaysan nahot" misrasida ham nahot yuklamasi distant-masofaviy takrori yuzaga keltirgan.

"Takror- matniy, kompozitsion yoki tematik birliklarning ma'lum badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlagan holda takrorlanishi badiiy matnga xos shunday usullarning umumiy nomi. [4,307]

She'r ohangdor, ta'sirli va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi uchun shoirning so'z tanlovi muhim hodisa hisoblanadi. Iqbol Mirzo she'rlarini tahlil qilishda leksik jihatdan yondashadigan bo'lsak, shoirning so'z qo'llash mahorati e'tiborga loyiqdir. "Kulib qarab, kulib ko'zin obqochgan, O'rgatvolib, kyin o'zin obqochgan, Quchoqlasam, titrab yuzin obqochgan" ("Ayyor qiz") [1,6] misralarida shoirning qanchalik so'z qo'llashga usta ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu parchadagi obqochgan so'zi asosiy kalit so'z bo'lib, aslida, tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qochgan shaklida bo'lish kerak, lekin shoir misralar ohangdorligiga erishish maqsadida bu so'zni shevaga moslashtirgan. Bu misralardagi uchala shakl ham bir xil tuzilishga ega. Bir xil shakldagi so'zlardan foydalanib, harakat, holat va natija ko'rinishida shakllantirilgan. Birinchi misradagi kulib, qarab, kulib so'zlaridagi k, q, b tovushlari takrori ohangdorlikni yaratmoqda. Obqochgan so'zining har satr oxirida takrorlanishi refren ya'ni takroriy yakun vazifasini bajaradi. "Milyon yilda meni yaratdi hayot" ("Yolg'iz") misrasida ham ohang va ritmga mos tushishi uchun million shakli o'rniga milyon shakli qo'llanilgan. Bu ham shoirning so'z tanlash mahoratiga bog'liq.

Alamim, hasadim, ginam tufayli,

Ehtimol ustingdan kulmoqchi edim.

Sog'insang, o'rtansang, yig'lasang mayli,

Men sening yodingda qolmoqchi edim. [1,4]

Ushbu misralarda otlarga xos egalik, va fe'llarga xos mayl hamda shaxs-son shakllari orqali she'rning ohangdorligi ta'minlangan. Alamim, hasadim, ginam shakllari bir xil tuzilishga ega bo'lib, sinonimik yaqinlikka ega, barchasi ichki kechinmalarni ifodalaydi. Shoir so'zlarni bu shaklda qo'llash orqali gradatsiya ya'ni kuchayib borish usulini hosil qilgan. Sog'insang, o'rtansang, yig'lasang so'zlari ham bor xil tuzilishga ega, ya'ni asos, -sa mayl qo'shimchasi va -ng shaxs-son qo'shimchasi. Bu so'zlar ham gradatsiyani yuzaga keltirmoqda. Bu bir xil grammatik shakldagi so'zlar parallelizmni ham yuzaga keltiradi. Parallelizm — bu nutqda yoki badiiy matnda bir xil



grammatik tuzilishga ega bo'lgan gap yoki so'z birikmalarining ketma-ket qo'llanishidir.

Iqbol Mirzo ijodida ritorik so'roq gaplardan ko'p foydalishiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Ritorik so'roq — javob olish uchun emas, balki fikrni kuchaytirish, ta'sirni oshirish yoki hissiy holatni ifodalash uchun beriladigan so'roq gapdir. Odatda javobi matnning o'zida yashirin bo'ladi.

Masalan:

Mohitobonmisiz bulutga tutqun?

Yoki jayronmisiz burgutga tutqun?

Yoki soyning ermagi sunbulmisiz?

Kulsangiz ham bunchalar qayg'ulisiz? [1,8] Ushbu misralarning barchasi sitorik savolga tayanadi. Bu gaplar javob olish uchun emas, balki tasvirni kuchaytirish, lirik qahramonning hayrat, izlanish, o'ylanish holatini berish uchun ishlatilgan.

Xulosa

Iqbol Mirzo she'rlarining morfologik va sintaktik tahlili shuni ko'rsatadiki, shoir til birliklaridan mahorat bilan foydalanib, chuqur mazmun va kuchli badiiy ta'sirga erishadi. She'rlarda so'z turkumlari, ayniqsa fe'llarning turli shakllari faol qo'llanib, harakat va holatning nozik ma'nolari ifodalanadi. Sintaktik jihatdan esa sodda va tushunarli misralar, parallel qurilmalar, ritorik savollar hamda takrorlar she'rning ohangdorligi va ifodaliligini kuchaytiradi. Umuman olganda, shoirning uslubi til vositalarining uyg'unligi orqali o'quvchiga chuqur estetik va hissiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzo I. Seni kuylayman -- T.: 2007.
2. Toshxo'jayeva Sh. Erkin A'zam asarlari lingvopoetikasi: filol.fan. nomz diss (PhD). Farg'ona, 2017.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. --Toshkent: Fan, 2007.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. --Toshkent: Akademyashr, 2013.